



## RISKKA TORTILGAN AKTIVLAR VA ULARNING BARQARORLIKKA TA'SIRI

**Ro'ziyev Baxtiyor Salimboyevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-4431-6659

[bakhtishka5199990@yandex.com](mailto:bakhtishka5199990@yandex.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 2013-2023-yillarda O'zbekiston banklarining faoliyati tahlil qilingan bo'lib, kredit va likvidlik risklarining bank barqarorligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kredit risklarining ortishi moliyaviy barqarorlikni pasaytiruvchi asosiy omildir. Shu bilan birga, yuqori likvid aktivlarga ega bo'lgan banklar barqarorroq ekanligi aniqlangan. Tadqiqot banklarning risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun ilmiy asos va amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** kredit risklari, likvidlik risklari, bank barqarorligi, O'zbekiston banklari, moliyaviy islohotlar, Z-score.

## РИСКОВЫЕ АКТИВЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ

**Рузиев Бахтиёр Салимбоевич**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье анализируется деятельность банков Узбекистана за период 2013-2023 годов с акцентом на влияние кредитных и ликвидных рисков на финансовую стабильность. Результаты показывают, что рост кредитных рисков является ключевым фактором снижения стабильности. Также установлено, что банки с высокими ликвидными активами более устойчивы. Исследование предлагает научные основы и практические рекомендации по улучшению систем управления рисками в банках.

**Ключевые слова:** кредитные риски, ликвидные риски, стабильность банков, банки Узбекистана, финансовые реформы, Z-score.

## RISKY ASSETS AND THEIR IMPACT ON STABILITY

**Ruziev Bakhtiyor Salimboevich**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article analyzes the performance of Uzbek banks during 2013-2023, focusing on the impact of credit and liquidity risks on financial stability. The results show that an increase in credit risks is a key factor reducing financial stability. Moreover, banks with higher liquid assets are found to be more stable. The study provides scientific foundations and practical recommendations for improving risk management systems in banks.

**Keywords:** credit risks, liquidity risks, bank stability, banks of Uzbekistan, financial reforms, Z-score.

## Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston moliya bozorining rivojlanishi, xususan, bank-moliya sektori, iqtisodiy islohotlar va global iqtisodiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelmoqda. Banklar iqtisodiyotning yurak urish tizimi sifatida mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikni saqlash va rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, global moliyaviy inqirozlarning saboqlari, likvidlik muammolari va kredit risklari kabi xavf omillari banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

2013-2023-yillar davomida O'zbekiston banklari qator muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi:

2017-2021-yillar islohotlar valyuta liberallasuvi, banklarning xalqaro bozorga chiqishi va xususiy sektor ulushining oshishi bilan xarakterli bo'ldi;

COVID-19 pandemiyasi iqtisodiyotga qattiq zarba bergan bo'lsa-da, davlat tomonidan banklarni qo'llab-quvvatlash choralari risklarni yumshatdi;

Elektron to'lov tizimlari va fintech kompaniyalari bilan hamkorlik banklarning moliyaviy xizmatlarini kengaytirdi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - 2013-2023-yillar davomida O'zbekiston banklarida kuzatilgan kredit va likvidlik risklarini tahlil qilish va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash. Tadqiqot natijalari nafaqat banklarning risklarni boshqarish strategiyalarini aniqlashga yordam beradi, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda samarali yechimlar taklif etadi.

## Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston bank sektorida 2017-yildan boshlangan islohotlar moliyaviy barqarorlikni oshirishga katta ta'sir ko'rsatdi. Jahon Banki (2020) hisobotida ta'kidlanganidek, valyuta liberallasuvi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik bank aktivlari hajmining o'sishiga olib keldi. Shu bilan birga, ushbu islohotlar risk boshqaruvi strategiyalarini yangilash zaruratini tug'dirdi.

Imbierowicz va Rauch (2014) tadqiqotida kredit risklari banklarning defolt xavfini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatilgan. O'zbekistondagi banklar faoliyatiga oid tadqiqotlarda muammoli kreditlar ulushining oshishi moliyaviy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatgani ta'kidlangan.

Ghenimi, Chaibi va Omri (2017) o'z tadqiqotida likvidlik risklarining barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi, chunki likvid aktivlar banklarning inqirozga qarshi chidamliligini oshiradi. O'zbekiston bo'yicha esa pandemiya davrida likvidlikning pasayishi (9.4%, 2020) bank tizimida inqiroz xavfini kuchaytirgan.

OECD (2021) hisobotida raqamli texnologiyalarning bank tizimiga joriy etilishi banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashi va operatsion risklarni kamaytirishi ta'kidlangan. O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishi (2020-yildan boshlab) banklar likvidlik riskini pasaytirishga yordam berdi.

COVID-19 pandemiyasi davrida kredit risklari keskin ortdi. IMF (2020) hisobotiga ko'ra, pandemiya davrida banklarning kredit xavfini boshqarish qobiliyati zaiflashgan bo'lsa-da, hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlov dasturlari vaziyatni yumshatishga yordam berdi. O'zbekistonda esa davlat tomonidan 2020-2021 yillarda ajratilgan subsidiya va likvidlik injeksiyalari banklarning barqarorligini tiklashga yordam berdi.

Mintaqaviy tadqiqotlarda, jumladan, Berger va Bouwman (2009) tadqiqotida, yuqori likvidlik va kuchli kapital talablarining bank barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati ta'kidlangan. O'zbekistonda 2023-yilga kelib kapitalning jami aktivlarga nisbati oshishi (14.5%) banklarning defolt xavfini kamaytirgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning samaradorligini ta'minlash maqsadida Z-score usulidan foydalanildi. Z-score – bankning barqarorlik ko'rsatkichi bo'lib, aktivlarning o'rtacha rentabelligi (ROA), kapital ulushi (CAR), va aktivlar rentabelligi o'zgaruvchanligini hisobga oladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Likvidlilik tavakkalchiligini hisoblash, mezonlar va monitoring bo'yicha xalqaro standartlari (Basel III)ga ko'ra, yanada barqaror bank tizimini shakllantirish maqsadida bank kapitali va likvidligini boshqarish bo'yicha xalqaro me'yorlarni takomillashtirish, shuningdek bank sektorining moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatini yaxshilash, pirovardida bunday muammolarni iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan real sektoriga o'tish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlar belgilangan:

kapitalni isloh qilish (shu jumladan, kapitalning sifat va miqdori, barcha tavakkalchiliklarni inobatga olish, qarz yuki koeffitsiyentini, konservatsiya va kontrsiklik bufer kapitali tushunchalarini joriy etish);

likvidlilikni isloh qilish (qisqa (LCR) va uzoq (NSFR) muddatli);

moliyaviy tizimni barqarorligini takomillashtirishga qaratilgan boshqa elementlar [8].

Shu jumladan, kredit risklari bankning qarz oluvchilar o'z majburiyatlarini bajarmaslik xavfi bilan bog'liq. Bu ko'rsatkich asosan muammoli kreditlarning jami kreditlarga nisbati sifatida o'lchanadi.

Kredit risklarining ortishi bankning foydalilik darajasiga va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit risklarining tahlili bank uchun muammoli mijozlarni aniqlash va qarz portfelini diversifikatsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Yuqori kredit risklari bankni kapitalni oshirishga va defolt xavfini kamaytirishga majbur qiladi.

Likvidlik risklari bankning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyatining yetishmovchiligi bilan bog'liq. Likvidlik yetishmovchiligi bankni qisqa muddatli qarz olishga majbur qiladi, bu esa operatsion xarajatlarni oshiradi. Yuqori likvidlik aktivlariga ega bo'lish bankning inqiroz davrida barqarorligini ta'minlaydi. Likvidlik risklarini tahlil qilish bankning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga yordam beradi va defolt xavfini kamaytiradi.

2013-2023-yillar oralig'ida olingan ma'lumotlar asosida Z-score orqali barqarorlik tahlil qilindi. Z-score tahlili statistik tahlil metodlaridan biridir va ma'lumotlarning o'rtacha qiymatdan qanchalik uzoqligini standart og'ish birligi bilan o'lchashga yordam beradi. Bu usul ko'pincha statistik tekshiruvlarda, normal taqsimotlarni baholashda va anomal qiymatlarni aniqlashda qo'llaniladi.

Quyidagi jadvalda asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan:

1-jadval

#### Kredit risklari, likvidlik risklari va Z-score tahlili

Yil	Kredit Risk (%)	Likvidlik Risk (%)	Z-score
2013	4.2	15.6	2.5
2016	5.8	12.8	2.7
2019	6.5	10.9	3.1
2020	8.3	9.4	2.3
2023	5.1	13.7	3.4

*Manba:* muallif hisob-kitoblari asosida tayyorlandi.

Z-score juda yuqori yoki juda past qiymatlarda bo'lsa ( $|Z|>3$ ), bu anomal deb qaralishi mumkin.

2013-2023-yillarda O'zbekiston banklari faoliyatida kredit va likvidlik risklari o'rtasidagi munosabat tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

Kredit risklarining oshishi (muammoli kreditlarning jami kreditlarga nisbati) banklarning daromad ko'rsatkichlarini pasaytirib, defolt xavfini o'pandemiya sharoitida iqtisodiy pasayish va mijozlarning qarzlarni qaytarishda qiyinchiliklar bilan bog'liq edi.

Likvid aktivlar ulushining oshishi (2019-yilda 10,9 %) banklarning o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oshirdi va barqarorlikni mustahkamladi. Shu bilan birga, 2020-yilda likvidlik pasayishi banklar faoliyatida qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

## 2-jadval

### Z-score komponentlari tahlili

Yil	ROA (%)	CAR (%)	ROA o'zgaruvchanligi (%)
2013	1.5	11.7	0.8
2016	1.7	12.9	0.7
2019	1.8	13.8	0.6
2020	1.2	12.1	1.0
2023	2.0	14.5	0.5

*Manba:* muallif hisob-kitoblari asosida tayyorlandi.

Tadqiqot davomida bank barqarorligi Z-score ko'rsatkichi orqali tahlil qilindi. Z-score kredit va likvidlik risklarining birgalikdagi ta'sirini aniqlashda muhim ko'rsatkich bo'lib, u banklarning defolt xavfidan qanchalik uzoqligini o'lchaydi. Yuqori Z-score yuqori barqarorlikni bildiradi. Bankning moliyaviy chidamliligini baholashga yordam beradi, ayniqsa, inqiroz sharoitida. Z-score orqali kredit va likvidlik risklarining birgalikdagi ta'siri o'lchanadi.

Banklar barqarorlik ko'rsatkichlari islohotlar va iqtisodiy o'sish hisobiga yaxshilangan. Pandemiya davrida kredit risklarining o'sishi va likvidlikning pasayishi barqarorlik ko'rsatkichlarini salbiy ta'sir ko'rsatdi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va xususiy banklar ulushining oshishi natijasida Z-score eng yuqori darajaga yetdi (3.4).

2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli banklar kredit va likvidlik risklariga sezilarli darajada duch keldi:

Korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan kreditlarni qaytarishdagi qiyinchiliklar natijasida muammoli kreditlar ulushi 8.3% ga yetdi.

Banklar o'z majburiyatlarini qoplash uchun zaxiralarini sarflashga majbur bo'ldi, natijada likvidlik risklari oshdi.

Pandemiya sharoitida hukumat tomonidan likvidlikni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar ajratildi. Bu chora-tadbirlar bank tizimidagi umumiy barqarorlikni tiklashga yordam berdi.

2017-yildan boshlangan islohotlar doirasida banklar sektorida xususiy sektor ulushining oshishi sezilarli o'zgarishlarga olib keldi:

Davlat ulushi mavjud eng yirik top-5 banklarning (O'zmilliy bank, Sanoatqurilishbank, Asaka bank, Ipoteka bank, Agrobank) bank tizimi aktivlaridagi ulushi 70.9%dan 60.5%gacha kamaydi. Davlat ulushi mavjud boshqa banklar ulushi 11%dan 18%gacha oshgan bo'lsa, xususiy banklar ulushi 18.1%dan 21.5%gacha ko'paydi. 2025 yilda esa, bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini 60%gacha oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur davrda bank tizimiga Tenge bank, TBC bank, Anor bank, Uzum (Apelsin) bank va Poytaxt bank kirib keldi. Ushbu banklarning jami aktivlardagi ulushi 1.8%ga yetdi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagi kuzatishlar aniqlandi:

Aktivlar rentabelligi pandemiya davrida pasayib, 2023-yilga kelib qayta tiklandi. Banklarning kapital ulushi barqarorlikni ta'minlash uchun oshirildi va bu barqarorlikni mustahkamladi.

### Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot 2013-2023-yillar davomida O'zbekiston banklarining kredit va likvidlik risklariga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlandi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Kredit xavfi darajasining oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu, ayniqsa, pandemiya yillarida yaqqol kuzatildi.

Likvid aktivlar ulushi yuqori bo'lgan banklar inqiroz sharoitida barqarorroq bo'lishgan. 2023-yilga kelib likvidlik darajasi qayta tiklandi.

Kapital yetarliligini oshirish, davlat qo'llab-quvvatlov choralari va xususiy sektorning ulushi ortishi banklarning barqarorlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

COVID-19 pandemiyasi davrida kredit risklari keskin oshib, bank tizimida muammoli aktivlar ulushining ko'payishiga olib keldi.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, banklarning risklarni boshqarish tizimini yanada kuchaytirish zarurati mavjud.

Tadqiqot davomida quyidagi takliflar shakllantirildi:

Kredit risklarini kamaytirish maqsadida qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilik darajasini baholash tizimini takomillashtirish.

Likvidlik risklarini boshqarishda yuqori likvid aktivlarga bo'lgan talablarni oshirish va stress-testlarni muntazam o'tkazish.

Basel III standartlariga mos ravishda minimal kapital talablarini oshirish.

Davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali bank kapitalini ko'paytirish.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy qilish.

Davlatning moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlash dasturlarini yanada kengaytirish.

### Adabiyotlar/ *Литература*/ Reference:

Altman, E. I., & Hotchkiss, E. (2006). *Corporate Financial Distress and Bankruptcy: Predict and Avoid Bankruptcy, Analyze and Invest in Distressed Debt*. Wiley Finance Series.

Berger, A. N., & Bouwman, C. H. S. (2009). *Bank Liquidity Creation and Financial Crises*. *Review of Financial Studies*, 22(9), 3779–3837. DOI: 10.1093/rfs/hhn104

Ghenimi, A., Chaibi, H., & Omri, M. A. (2017). *Liquidity Risk and Bank Stability: A Comparative Study Between MENA and OECD Countries*. *Research in International Business and Finance*, 40, 435–447. DOI: 10.1016/j.ribaf.2017.04.002

Imbierowicz, B., & Rauch, C. (2014). *The Relationship Between Liquidity Risk and Credit Risk in Banks*. *Journal of Banking & Finance*, 40, 242–256. DOI: 10.1016/j.jbankfin.2013.11.030

Norma.uz *Informatsionno-pravovoy portal*. (2016). *O'zbekiston tijorat banklarida bank nazoratining xalqaro standartlarini qo'llash amaliyoti*. [online] Available at: <https://www.norma.uz/oz/bizning sharhlar/uzbekiston tijorat banklarida bank nazoratining halqaro standartlarini qullash amaliyeti>

Vazquez, F., & Federico, P. (2015). *Bank Funding Structures and Risk: Evidence from the Global Financial Crisis*. (2015) *Journal of Banking & Finance*, 61, 1–14. DOI: 10.1016/j.jbankfin.2015.07.013